

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT T O'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**



**TARMOQLAR IQTISODIYOTI  
FANINING O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
- Ta'lim sohasi:** 410 000 – Biznes va boshqaruv
- Ta'lim yo'nalishi:** 60410100 –Iqtisodiyot

Fan/modul kodi TIQ1605		Semestr 6	ECTS-kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tarmoqlar iqtisodiyoti	60	90	150
2.	<p><b>I.Fanning mazmuni:</b>  <b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - talabalarga mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarining turlari, tashkil qilinishi, faoliyatini boshqarish va rejalashtirish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishdagi asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, mehnat resurslarining, ishlab chiqarish faoliyati pirovard natijalarini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan tannarx, foyda, rentabellikning iqtisodiy mohiyati kabi masalalarni chuqurroq o'rgatishdan iboratdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning o'rni, turlari va vazifalarini, paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini boshqarish strategiyasi, taktikasining mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini, paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida malakali kadrlarni tayyorlash, ularni malakasini oshirish yo'llarini o'rganish, paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini aniqlash, korxonalar mahsuloti sifatini oshirish hamda samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini baholash.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b>  <b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. "Tarmoqlar iqtisodiyoti" fanining mazmuni, predmeti va metodi</b>  Tarmoqlar iqtisodiyoti – fan va o'quv kursi sifatida. Ushbu fanning o'rganish ob'ekti. Tarmoqlar turlari va tavsifi. Fanning predmeti, o'rganish uslubiyati va usullari. Kursning tuzilishi va uning iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rni hamda boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Fanning mamlakat iqtisodiyotini yangilash va modernizatsiyalash sharoitiga va islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha talablarga xos va mos vazifalari. O'zbekiston sanoati va uning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish to'g'risidagi qonunlar, farmonlar va nizomlar.</p> <p><b>2-mavzu. Korxonalar – mustaqil xo'jalik yurutuvchi bozor sub'ekti</b>  Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning o'rni, korxonalarining turlari. Sanoat korxonalarining belgilari, vazifalari. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Korxonalarini tasniflash.</p> <p><b>3-mavzu. Sanoat – milliy iqtisodiyotning etakchi tarmog'i</b>  Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidadagi roli va o'rni. Sanoat-milliy ishlab chiqarishning eng yirik etakchi tarmog'i. Mehnat qurollari, mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi soha. Sanoat va aholini ish bilan bandligi</p>			

masalasi. Sanoat tarmoqlari va uning rivojlanishi. Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar. Tarkib siyosati, uning mohiyati va axamiyati. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog'ining shakllanishi. Sanoatning tarmoqlarga bo'linishi va tarmoq tuzilishi. Sanoat tarmog'i tuzilmasi uni belgilovchi omillar.

#### **4-mavzu. Tarmoq korxonalari faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish**

Tarmoq korxonalari faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilishning uslubiy asoslari, uning ob'ektiv zaruriyati. Rejalashtirishning vazifalari, tamoyillari, usullari. Rejalashtirishning turlari, ko'rsatkichlari. Korxonaning biznes rejasi, uning asosiy bo'limlari, ishlab chiqish tartibi. Ishlab chiqarish dasturi, uni tuzish.

#### **5-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi**

Samaradorlik sanoat ishlab chiqarishining "ko'zgusi" sifatida. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezon va ko'rsatkichlari. Ijtimoiy ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni xisoblash usullari. Qiyosiy iqtisodiy samaradorlik tushunchasi va ko'rsatkichlari. Yillik iqtisodiy samara va uni xisoblash usuli. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari va yo'llari. Samaradorlikning bozor iqtisodi va uning mexanizmlari bilan bog'liqligi.

#### **6-mavzu. Sanoatda fan-texnika taraqqiyoti**

Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati. Bozor iqtisodiyoti sharoitida fan-texnika taraqqiyoti. Fan-texnika rivoji va sanoatni tuzilishi jihatdan qayta qurish. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari. Sanoat ishlab chiqarishini xar tomonlama mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish. Sanoatda yashil iqtisodiyot taraqqiyotining istiqbolli yo'nalishlari. Yashil iqtisodiyot tushunchasi va uni joriy etishning asosiy yo'nalishlari. Yashil iqtisodiyotning samaradorligini baholash.

#### **7-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishning asosiy vositalari va ishlab chiqarish quvvatlari**

Asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. O'zbekiston sanoati asosiy vositalarining dinamikasi. Asosiy ishlab chiqarish vositalarning tarkibi va tuzilmasi. Asosiy vositalarning tarkibiy tuzilmasi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar. Asosiy vositalarni baholash usullari. Jismoniy va ma'naviy eskirish. Amortizatsiya siyosati va uni O'zbekiston Respublikasida amalga oshirishning o'ziga xos xususiyati. Amortizatsiya ajratmalari mohiyati, ahamiyati, ulardan vositalanishning me'yorlari va yo'nalishlari. Asosiy vositalardan foydalanish ko'rsatkichlari. Fond sig'imi va qaytimi. Ishlab chiqarish quvvati haqida tushuncha. Paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Ishlab chiqarish quvvatini hisoblash ko'rsatkichlari, ish rejimi, foydali ish koeffitsienti. Ishlab chiqarish quvvatini oshirishning asosiy omillari.

#### **8-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishining aylanma fondlari va aylanma mablag'lari**

Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati. Sanoat tarmoqlarida aylanma fondlarning tarkibi va tuzilmasi. Aylanma fondlar elementlaridan foydalanish

ko'rsatkichlari va mahsulotning material sig'imi. Mehnat resurslarini me'yorlash va ularni xarajat me'yorlarini hisoblash usuli. Aylanma va muomila fondlari. Ularning tarkibi va aylanish ko'rsatkichlari. Me'yorlashtiriladigan va me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'lar. Aylanma mablag'lar va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari.

#### **9-mavzu. Sanoatda kadrlar va mehnatga haq to'lash**

Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli. Kadrlar, ularning tarkibi. Xodimlarni guruhlarga ajratish va kadrlarning zamonaviy tuzilmasini tashkil etish. Kadrlar tanlash va ularni joy joyiga qo'yish. Sanoat ishlab chiqarish uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash.

Mehnat va unga haq to'lash. Xodimlar mehnatiga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Tarif tizimi, uning mohiyati, ish haqini tashkil etish va tartibga solishning ahamiyati. Sanoat korxonalarida ish haqini to'lashning shakllari. Sanoat xodimlarini ijtimoiy himoya qilish.

#### **10-mavzu. Sanoat mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligi**

Sifat tushunchasi va uni oshirish zaruriyati. Mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol xossasi va uning texnikaviy darajasi. Sifat ko'rsatkichlari. Mahsulot sifatini tavsifi. Mahsulot sifatini baholash usullari. Mahsulot sifatining texnologik, iqtisodiy, tashkiliy yo'nalishlari. Mahsulot sifatini yaxshilashni iqtisodiy rag'batlantirish. Standartlash, sertifikatsiyalash, attestatsiya va nazorat.

#### **11-mavzu: Innovatsiya boshqaruvi va startap–akselerator aloqasi**

Startaplar uchun ideyadan pilot-laga, skalirovkadan global bozorga o'tish ssenariylari tahlil qilinadi. Akselerator va inkubator dasturlaridagi investitsiya model va shartnomalari ko'rib chiqiladi. Mahalliy startaplar muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizlik sabablari tahlil qilinadi. Seed va VC investitsiyalari istiqbollari hamda grant-subsidiyalarni jalb qilish usullari bo'yicha amaliy mashg'ulot. Innovatsiya portfelini boshqarish va ROI-ni oshirish strategiyalari o'rganiladi.

#### **12-mavzu: Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish iqtisodiy imkoniyatlari**

AI va robototexnika investitsiya samaradorligini hisoblash metodikasi aniqlanadi. Ishchi kuchi o'rnini bosuvchi texnologiyalar va shu bilan bog'liq mehnat bozorida o'zgarishlar tahlil qilinadi. Loyihani ROI, NPV va IRR ko'rsatkichlari asosida baholash bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. Texnologiyalarni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan etika va huquqiy muammolar muhokama qilinadi. Kompaniyaning raqamli strategiyasiga AI modulini integratsiya qilish rejalari tuziladi.

#### **13-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishida baho va baholash**

Davlatning baho siyosati va uni amalga oshirish zaruriyati. Baho – bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va zaruriyati. Bahoning funksiyalari, turlari va tarkibi. Uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqligi. Baholashni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari. Tovar sotishni ko'paytirish. Maksimal foyda olish. Korxonalarining muayyan mavqeini saqlab qolish.

#### **14-mavzu. Tarmoq korxonalarini joylashtirish va xom ashyo bazasi**

Korxonalarini joylashtirishda yashil iqtisodiyot tamoyillari. Paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini joylashtirish omillari. Yashil iqtisodiyot sharoitida paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoatkorxonalarini joylashtirishning iqtisodiy asoslari.

Yashil iqtisodiyotda xom-ashyo, uning xususiyatlari, turkumlanishi. Paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoati korxonalarida ishlatiladigan xom-ashyolar, ularga qo'yiladigan talab. Sun'iy, sintetik materiallardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi. Xom-ashyo, materiallardan tejimli foydalanish strategiyasi va taktikasi. Xom ashyo va materiallarni tejashning asosiy manbalari. Moddiy resurslardan samarali foydalanishning korxonalar ishlab chiqarish faoliyatiga ta'siri.

#### **15-mavzu: O'zbekistonda tarmoqlar iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari**

Mamlakat iqtisodiyotining joriy holati, asosiy eksport-import yo'nalishlari va raqobatbardoshlik omillari tahlil qilinadi. Hukumat strategiyalari, davlat dasturlari va tamoyillar asosida tarmoqlarni modernizatsiya qilish yo'nalishlari aniqlanadi. Innovatsion rivojlanish, «yashil iqtisodiyot» va raqamli transformatsiya imkoniyatlari o'rganiladi. Amaliy mashg'ulotda O'zbekiston tarmoqlarida strategik rivojlanish modelini loyihalashtirish topshirig'i beriladi. Bozor sharoitidagi cheklovlar va global integratsiya yo'llari muhokama qilinadi.

#### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Tarmoqlar iqtisodiyoti" fanining mazmuni, predmeti va metodi.
2. Korxonalar – mustaqil xo'jalik yurutuvchi bozor sub'ekti.
3. Sanoat – milliy iqtisodiyotning etakchi tarmog'i.
4. Tarmoq korxonalarini faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish.
5. Sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi.
6. Sanoatda fan-texnika taraqqiyoti.
7. Korxonaning asosiy vositalari va chiqarish quvvatlari.
8. Sanoat ishlab chiqarishining aylanma fondlari va aylanma mablag'lari.
9. Sanoatda kadrlar va mehnatga haq to'lash.
10. Sanoat mahsulotining raqobatbardoshligi.
11. Innovatsiya boshqaruvi va startap-akselerator aloqasi.
12. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish iqtisodiy imkoniyatlari.
13. Sanoat ishlab chiqarishida baho va baholash.
14. Tarmoq korxonalarini joylashtirish va xom ashyo bazasi.
15. O'zbekistonda tarmoqlar iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari.

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Laboratoriya mashg'ulotlari o'quv rejada rejalashtirilmagan

	<p><b>V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b>          Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda korxonalarining o'rni.</li> <li>2. Korxonalar faoliyatida rejalashtirish, biznes-reja bo'limlari.</li> <li>3. O'zbekistonning rivojlanishida kichik tadbirkorlikning ahamiyati.</li> <li>4. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha hukumat tomonidan ishlab chiqilgan qarorlar, qonunlar, farmonlar.</li> <li>5. Tarmoq korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlari.</li> <li>6. Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi</li> <li>7. Yengil sanoat korxonalarini asosiy vositalari va ularning amartizatsiyasi.</li> <li>8. Sanoat korxonalarini aylanma mablag'lari.</li> <li>9. Sanoat korxonalarida mehnatga haq to'lashni tashkil etish.</li> <li>10. Sanoatda mehnatga haq to'lash va uning turlari.</li> <li>11. Ish haqi fondlaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari.</li> <li>12. Korxonada xavfsizligini ta'minlash va tijorat sirlari.</li> <li>13. Ishlab chiqarish va tovar ayirboshlash.</li> <li>14. Ishlab chiqarishni texnik jihatdan tashkil etish.</li> <li>15. Jamoa mulkiga asoslangan korxonalar, ularning turlari, ularni kengaytirish yo'llari.</li> <li>16. To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yullari.</li> <li>17. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yengil sanoat korxonalarini xom ashyo bazalari.</li> <li>18. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir etuvchi omillar</li> </ol> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p><b>VI. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari</b>  <b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarining respublikamiz iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati, sanoat korxonalarini tashkil etish va uning faoliyatini tugatish, sanoat korxonalarini boshqarish, tarmoq korxonalarini kadrlari tarkibi va rag'batlashtirish tizimi, korxonaning xavfsizligi va tijorat sirlari, tarmoq korxonalarini foydasi va rentabelligi <b>haqida tasavvurga ega bo'lishi;</b></li> <li>– paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoatlariga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini baholashni, korxonalarining asosiy fondlari va aylanma mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholashni, sanoat korxonalarida fan texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini, mehnatga haq to'lash va xodimlar mehnatini rag'batlantirish qoidalarini, paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoatlarida foydani oshirish va rentabellikni ta'minlash yo'llarini <b>bilishi va ulardan foydalana olishi;</b></li> <li>– paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini mahsulotlari tannarxini hisoblash, korxonaning foydasi va rentabelligini aniqlash, paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoatlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, fan texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga joriy etish <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</b></li> <li>– nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, chuqur bilimga va tasavvurga ega bo'lishini, statistik axborotni takomillashtirish va iqtisodiy tahlil qilishni, hisoblarni</li> </ul>

	amalgam oshirish hamda ular asosida xulosalar chiqarish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	<p><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar;</li> <li>• interfoal keys-stadilar;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash;</li> <li>• vedio materiyallar tayyorlash;</li> <li>• individual ishlash.</li> </ul>
5.	<p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan mavzular haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ro'ziyeva D.I. Korxonalar iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022, 270 b.</li> <li>2. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov SH.A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020, 526 b.</li> <li>3. Muratov R.S., Djalilova I.A., Oripov S.SH. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014, 424 b.</li> <li>4. Mark K. Pyles. Applied corporate finance. Springer science+business media, New York, 2014.</li> <li>5. Abdulkarimov B.X. va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2013. 286 b.</li> <li>6. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti: darslik. - Toshkent: TDIU, 2014, 256 b.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.</li> <li>8. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi, Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 48 bet.</li> <li>9. Утник Э.А. Бизнес план. Организация и планирование предпринимательской деятельности.–М.:Тандем ЭКМОС, 2007.-564 с</li> <li>10. Eshonkulov R.Sh. "Tarmoqlar iqtisodiyoti", Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2018.</li> <li>11. Carlton D.W., Perloff J.M. "Modern Industrial Organization", 5-chi nashr, Pearson, 2004.</li> <li>12. Porter M. "Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors", Free Press, 1980.</li> </ol> <p><b>Axborot manbaalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>13. www.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.</li> </ol>

	<p>14. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a>-O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti.</p> <p>15. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a>- O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>16. <a href="http://www.uza.uz">www.uza.uz</a>- O'zbekiston respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.</p>
7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025 yil " <u>27</u> <u>08</u> " dagi " <u>1</u> "-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	<b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> Sherkabilov Sh.A. - TTYSI "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida katta o'qituvchisi, Temirova Sh.Sh. - TTYSI "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida assistenti.
9.	<b>Taqrizchilar:</b> Yusupov U.Sh. - TDIU "Innovatsion menejment" kafedrasida dotsenti, PhD. Yuldashev S.N. - TTYSI "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida dotsenti, i.f.n.

**Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.**

№	OTM nomi	QS	THE	Havolalar	Sillabusdagi mavzu nomi	Chet el universiteti Sillabuslaridagi mavzular
1	Massachusetts Institute of Technology (MIT), (#1, USA).	1	-	<a href="https://ocw.mit.edu/courses/14-01sc-principles-of-microeconomics-fall-2011/pages/syllabus/">https://ocw.mit.edu/courses/14-01sc-principles-of-microeconomics-fall-2011/pages/syllabus/</a>	11-mavzu to'liq olingan	Massachusetts Institute of Technology (MIT) Principles of microeconomics fall 2011/pages/syllabus/
2	Stanford University, (#3, USA).	3	-	<a href="https://syllabus.stanford.edu/syllabus/#/mainSyllabus">https://syllabus.stanford.edu/syllabus/#/mainSyllabus</a>	12-mavzu rejasida ishlatilgan mavzular	Stanford University syllabus
3	University of Oxford, (#4, UK).	4	-	<a href="https://lifelong-learning.ox.ac.uk/courses/microeconomics-an-introduction-online#programme_details_container">https://lifelong-learning.ox.ac.uk/courses/microeconomics-an-introduction-online#programme_details_container</a>	15-mavzu to'liq olingan	University of Oxford Courses micro Economics an introduction